

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi** kafedrasida o'qituvchisi **M.Sh.Nazarova** tomonidan **"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"** kafedrasida katta o'qituvchisi **Nazarova Maram Sharipovna** tomonidan **"Makroiqtisodiyot"** fanining **"IS-LM modeli"** mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

## TAQRIZ

Ochiq ma'ruza darsining mavzusi **"Makroiqtisodiyot"** fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi, ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Ishlanmada ochiq ma'ruza darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyalari, taqdimotlar berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari to'liq ochib berilgan.

**"IS-LM modeli"** ma'ruza mavzusi boyicha ta'lim texnologiyasi, matnida **IS -LM** modelining mohiyati va **AD-AS** modeli bilan bog'liqligi nazariy va amaliy ahamiyati, **IS - egri** chizig'ining algebraic tahlili, **LM - egri** chizig'i va uning tenglamasi, Tovar va pul bozorlarining birgalikdagi muvozanati, o'zaro bog'liqligi reja-savollariga ma'ruza matni hamda tayanch iboralar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati, nazorat uchun og'zaki va test savollari berilgan.

Umuman olganda, **M.Nazarova** tomonidan tayyorlangan **"IS-LM modeli"** mavzusidagi ma'ruza ishlanmasi **"Ochiq ma'ruzalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom"** talablariga mos keladi va uni o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**TDIU Samarqand filiali**

**"Buxgalteriya hisobi va statistika"**

**kafedrasida mudiri, dotsent**

**M.Mardonov**



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasida katta o'qituvchisi M.Sh.Nazarova** tomonidan **"Makroiqtisodiyot"** fanining **"IS-LM modeli"** mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

## TAQRIZ

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish **IS - LM** modeli yordamida bajariladi. **IS - LM** modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. Garchand iste'mol va investitsion tovarlarga talab turli omillar bilan belgilansada **IS - LM** modelida ular bir butun deb qaraladi. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog'ozlari ko'rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi sotdi mexanizmi tushuniladi. Bu bozorni obligatsiyalar bozorida farqlash zarur. Pulning obligatsiyalarda ifodalangan nisbiy bahosi obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasidir.

**—IS - LM modeli** (investitsiyalar-jam'armalar, likvidlilikni afzal ko'rish - pul) - yalpi talab funksiyasini belgilovchi iqtisodiy omillarni aniqlash imkonini beruvchi tovar-pul muvozanatim modeli. **AD-AS** modelida tovar va pul bozorlarining aloqasi e'tiborga olingan edi. Ya'ni tovarlar va xizmatlar baholarining ko'tarilishi pulga bo'lgan talabni oshirishi bu esa o'z navbatida foiz stavkasining ko'tarilishiga olib kelishi, oqibatda investitsiya xarajatlari va umuman yalpi xarajatlar kamayishi **AD-AS** modelida ko'zda tutilgan edi. **IS-LM** modeli **AD-AS** modelini qisqa muddatli davrga aniqlashiradi va bu modelda har ikkala bozor yagona makroiqtisodiy tizimning sektorlari sifatida namoyon bo'ladi.

**M.Sh.Nazarova** tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan **"IS-LM modeli."** mavzusi **"Makroiqtisodiyot"** fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olgand, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'qitish jarayonida foydalanishni--maqsadga-muvofiq--deb hisoblayman.

**"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"** kafedrasida dotsenti, **I.I.N.**

**ASDIALAYMAN**  
**I.Salamov**

ning imzosi

chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Kafedrasida o'qituvchisi